

QO'QON DAVLAT PEDAGOGIGA INSTITUTINING TASHKIL TOPIHI (1931 -1938)

Soipova Orzugul Inomjon qizi

Qo'qon Davlat Universiteti Gumanitar fanlar va tillar fakulteti

Tarix yo'nalishi 202 – guruh talabasi

e – mail: orzugulsoipova72@gmail.com

Tel: +998933848115

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 16.03.2026

Revised: 17.03.2026

Accepted: 18.03.2026

KALIT SO'ZLAR:

*Qo'qon davlat
pedagogika instituti,
oliy pedagogik ta'lim,
1931–1938 yillar,
ta'lim tizimi, pedagog
kadrlar tayyorlash,
madaniy qurilish,
savodsizlikni tugatish,
Farg'ona vodiysi,
tarixiy manbalar,
institutsional
shakllanish.*

Mazkur maqolada Qo'qon davlat pedagogika institutining 1931–1938 yillardagi tashkil topish va shakllanish jarayoni tarixiy manbalar asosida tahlil etiladi. Tadqiqotda XX asrning 30-yillarida O'zbekiston hududida amalga oshirilgan madaniy-ma'rifiy siyosat, savodsizlikni tugatish harakati hamda pedagog kadrlar tayyorlash tizimining yo'lga qo'yilishi jarayonlari bilan institut faoliyatining uzviy bog'liqligi ochib beriladi.

Maqolada institutning dastlabki tashkiliy-huquqiy asoslari, moddiy-texnik bazasining shakllanishi, o'quv rejalari va dasturlarining ishlab chiqilishi hamda professor-o'qituvchilar tarkibining shakllanish bosqichlari yoritiladi. Shuningdek, mazkur davrda mintaqada malakali pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyoj va uning ijtimoiy omillari ilmiy jihatdan asoslanadi.

Tadqiqot jarayonida arxiv hujjatlari, davriy matbuot materiallari hamda tarixiy-adabiy manbalardan foydalanildi. Natijada 1931–1938 yillar institut tarixining muhim bosqichi sifatida baholanib, uning Farg'ona vodiysi ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyati aniqlashtirildi. Maqola O'zbekistonda oliy pedagogik ta'lim tizimining shakllanish tarixini o'rganishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Kirish

1931–1938 yillar institutning shakllanish, tashkiliy tuzilmasining mustahkamlanishi, professor-o'qituvchilar tarkibining formalanishi hamda dastlabki bitiruvchilarni tayyorlash davri sifatida tarixiy ahamiyatga ega. Ushbu jarayonlarni ilmiy asosda o'rganish bugungi

kunda ham muhimdir, chunki u O'zbekistonda oliy pedagogik ta'lim tizimining ildizlari, rivojlanish bosqichlari va an'alarini anglash imkonini beradi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar tarixiy tajribani chuqur tahlil qilishni talab etadi. Institutning tashkil topish jarayonini o'rganish orqali o'sha davr ta'lim siyosati, kadrlar tayyorlash mexanizmlari hamda mintaqaviy pedagogik muhitning shakllanishi haqida muhim ilmiy xulosalarga kelish mumkin. Shu bois mazkur maqola 1931–1938 yillarda Qo'qon Davlat pedagogika institutining vujudga kelishi va rivojlanishining dastlabki bosqichlarini tarixiy manbalar asosida yoritishga qaratilgan. Qo'qon Davlat pedagogika institutining dastlabki tashkil etilgan davrida, ya'ni 1931 -1938 yillar oralig'ida oliygohning tashkiliy-huquqiy asoslari shakllangan, moddiy-texnik bazasi yaratilgan hamda o'quv rejalari va dasturlari ishlab chiqilgan davr hisoblanadi. Dastlabki yillarda ta'lim jarayoni qisqa muddatli kurslar va maxsus pedagogik tayyorgarlik dasturlari orqali yo'lga qo'yilgan bo'lsa, keyinchalik to'laqonli fakultet va kafedrlar tizimi shakllangan. Bu esa mintaqada o'rta va umumta'lim maktablari uchun zarur bo'lgan malakali mutaxassislarni yetishtirish imkonini bergan.

Bugungi kunda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida tarixiy tajribani tahlil qilish, xususan, 1931–1938 yillardagi pedagogik ta'lim tizimining shakllanish bosqichlarini o'rganish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi. Chunki tarixiy tajriba nafaqat muayyan davrning ijtimoiy-siyosiy manzarasini ochib beradi, balki zamonaviy ta'lim strategiyalarini ishlab chiqishda ham nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Mavzuga oid dastlabki tadqiqotlarni o'tkazgan X. Mavlonqulov, F.Toshpo'latov, L. Zohidovlarning "Yuksalish odimlari" nomli tarixiy ocherkti, V.Maxmudov, M. Jamoliddinov, M. Maqsudov, D. Mirzajonova, M. Axmedovlarning "Muqimiy nomidagi Qo'qon Davlat pedagogika institutining innovatsion rivojlanish istiqbol dasturi" nomli o'quv va uslubiy qo'llanmalarini keltirib o'tish mumkin. Mazkur tadqiqotlarda Qo'qon davlat pedagogika insitutining tashkil etilishi, faoliyati va rivojlanish bosqichlari hamda mazkur dargohdagi professor o'qituvchilar hamda talabalarning ish va o'quv jarayonlari aniq ma'lumotlar asosida tahlil etilgan.

Mazkur tadqiqotlar o'zining soha faoliyatini turli davlar bo'yicha tarixiylik jihatdan tahlil etilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin yuqoridagi tadqiqotlarda insitutning bacha fakultet va yo'nalishlari, uning yutuqlari to'liq tahlil etilmagan. Shu sababdan Qo'qon davlat pedagogika insitutining tarixini davrlarga bo'lib, chuqur tahlil etish dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning tarixiylik, mantiqiy-yuridik, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, xronologik kabi usullaridan foydalanildi. Qo'qon Davlat pedogogika instituti tashkil etilishining dastlabki bosqichlari mavzusini tadqiq etishda tadqiqotlar va mavzuga doir adabiyotlar, gazeta va jurnal materiallari hamda arxiv materiallari nazariy asos bo'lib

hizmat qilgan. Manbalardan olingan ma'lumotlar tahlili mavzuga xolisona, tarixiylik qoidasi asosida yondashuvni talab etadi. Yuqorida ta'kidlangan usullardan foydalanish natijasida quyidagilar ilmiy yangilik sifatida o'rganildi: *birinchidan*, Qo'qon davlat pedagogika institutining 1931–1938 yillardagi tashkil topish jarayoni Farg'ona vodiysida pedagog kadrlar tayyorlash tizimining shakllanishi bilan uzviy bog'liqlikda kompleks tarzda tahlil qilindi; *ikkinchidan*, institut faoliyatining dastlabki bosqichida uning tashkiliy-huquqiy asoslari, o'quv rejalari va dasturlarining shakllanishi hamda professor-o'qituvchilar tarkibining tarkib topish jarayoni arxiv materiallari asosida aniqlashtirildi; *uchinchidan*, 1930-yillarda amalga oshirilgan savodsizlikni tugatish siyosati hamda umumiy majburiy ta'limni joriy etish jarayonlari bilan institut faoliyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ilmiy asosda yoritildi; *to'rtinchidan*, mazkur davrda institutning mintaqadagi ijtimoiy-madaniy muhitga ta'siri, xususan, mahalliy pedagog kadrlarning shakllanishidagi o'rni va ahamiyati tarixiylik tamoyili asosida baholandi.

Natija va muhokama

Oliy malakaga ega bo'lgan professor o'qituvchilari, katta ilmiy metodik iqtidorli ilmiy xodimlarga ega bo'lgan pedagogika oliy o'quv yurtlari mustaqillik jarayonida malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash o'chog'i hisoblangan.

O'z faoliyatini 1931 yil yanvar oyida boshlagan Muqimiy nomidagi Qo'qon Davlat pedagogika instituti ham xuddi shunday pedagogik oliy o'quv yurtlari jumlasiga kiradi[1]. Qo'qon shahrida birinchi oliy o'quv yurti o'z faoliyatini kechki pedagogika oliy bilimgoi sifatida (4 yillik o'qish muddati bilan) pedagogika texnikumi binosida boshladi.

1939-1940 o'quv yilidan boshlab u kunduzgi davlat o'qituvchilar oliy bilimgohiga aylantirildi. 1943 yildan esa, xotin-qizlar o'qituvchilar bilimgoi, 1954 yildan xotin-qizlar Davlat pedagogika oliy bilimgoi bo'ldi. 1943 yil oktyabr oyidan boshlab oliy bilimgohga demokrat shoir Muqimiy nomi berildi.

60 yil Ichida oliy bilimgoi kichik bir oliy o'quv yurtidan katta bazaga ega bo'lgan oliy malakali pedagog kadrlar va maktabgacha tarbiya muassasalari tarbiyachilari tayyorlash markaziga aylandi[2].

Qo'qon Davlat pedagogika instituti (hozirda Qo'qon Davlat Universiteti) murakkab tarixiy o'tmish va ahamiyatga ega. Jahon urushlari ketayotgan bir vaqtda o'z faoliyatini davom ettirgan bu oliygohning tarixini o'rganish, albatta samarali natija ko'rsatuvchi tadqiqotlardan biri hisoblanadi.

Qo'qon shahrida ilm-fanning rivojlanishi, jamiyatimiz uchun zarur bo'lgan ilmiy-pedagogik kadrlar yetishtirish va umumiy o'rta-ta'lim maktablari uchun pedagog kadrlar tayyorlashda institutning alohida o'rni bor. Institut tashkil etilganidan buyon o'tgan davrda ushbu oliy dargohdan ko'plab olimlar, xalqning hurmat- e'tiboriga tushgan sazavor bo'lgan pedagoglar yetishib chiqqan[3].

1918–1920-yillardan boshlab birinchi milliy oʻrta pedagogik oʻquv yurtlari tashkil etilib, shu jumladan u Qoʻqon shahrida ham ochildi. 1920-yilda Turkiston Davlat Universiteti (ToshDU) tashkil etildi. 1927-yilda Samarqandda oliy pedagogika oʻquv yurti ochilib, u 1930-yilda Oʻzbekiston Pedagogika Akademiyasiga, 1933-yildan boshlab Oʻzbekiston Davlat Universitetiga aylantirildi.

Qoʻqonda oliy taʼlimning rivojlanishi dastlabki yillarda Oʻzbekistonda Kompartiyaning I–II sʼezdlarining umumiy majburiy taʼlim va savodsizlikni tugatish haqidagi qarorlari asosidagi koʻrsatmalarida oʻz aksini topdi. 1930-yildan boshlab Oʻzbekistonda oliy pedagogik oʻquv yurtlari tashkil qilina boshlandi va bu oʻquv yurtlari kelgusida boshlangʻich va oʻrta maktablarga, maktabgacha tarbiya muassasalari uchun oʻqituvchi kadrlar va tarbiyachilar tayyorlashning muhim markaziga aylandi.

1929-yilda respublikada ikkinchi oliy pedagogik bilim yurt - Toshkent oliy pedagogika oʻquv yurti tashkil etildi. 1930-yilda Buxoro, Fargʻona pedagogika oliy bilim yurtlari ochildi. 1931-yilda esa ikkita oliy pedagogika bilim yurti -Samarqand va Qoʻqon kechki pedagogika oliy bilim yurtlari tashkil etildi[4]. Qoʻqonda yoshlarni oliy bilim yurtiga kirish uchun tayyorlash ishlari ham olib borildi. Bu sohada ishchi fakultetlari muhim rol oʻynadi. Ikki yillik oʻqish muddati bilan bunday kurs birinchi marta 1921-yilda ochildi va unga 100 nafar turli millat vakillari qabul qilindi. Keyincha shaharda kechki ishchi universiteti ish boshladi va tinglovchilarning soni 240 kishini tashkil etdi. Boshlangʻich, toʻliqsiz oʻrta va oʻrta maktab tarmoqlarini tez surʼatda rivojlantirish bilan birga partiya va sovet tashkilotlarining oldida turgan muhim vazifa - aholi zich joylashgan Fargʻona viloyatining katta yoshdagi aholisi oʻrtasidagi savodsizlikni va chalasavodlikni tugatish edi. Qoʻqonda savodsizlikni tugatishda oʻqituvchilar, texnik xodimlar, yuqori sinf oʻquvchilari, jamoat tashkilotlarining faollari ishtirok etdilar. Bu kabi muhim xayrli ishlar boshida bizning ilgʻor qarashli mashhur hamshaharlarimiz -Hamza Hakimzoda Niyoziy, Qori Niyoziy, Ashurali Zohiriy, Poʻlatjon Qayumov va boshqalar turdilar va sidqidildan mehnat qildilar[5].

Shunday qilib, Qoʻqonda pedagogika oliy oʻquv yurti tashkil etilishi arafasida shaharda pedagogika bilim yurti, mexanika texnikumi, kechki ishchilar universiteti, 3 va 6 oylik pedagogik kurslar hamda shahar va Qoʻqon guruh tumanlari aholisi maktablari uchun oʻqituvchilar tayyorlovchi bir yillik va ikki yillik pedagogik kurslar mavjud edi va ularning bitiruvchilari yangi ochilgan pedagogika oliy bilim yurtining talabalari boʻldilar.

Qoʻqon kechki pedagogika oliy bilimgoi va uning tayyorlov boʻlimiga birinchi marta talabalar qabul qilish 1931-yilning yanvar oyidan boshlangan[6].

Shu yili oliy bilimgohning birinchi kursiga 60 talaba qabul qilingan boʻlib, ularning koʻpchiligi shahar va nohiyalarining toʻliqsiz oʻrta va oʻrta maktablarida ishlayotgan va oliy maʼlumoti boʻlmagan oʻqituvchilar edilar.

Dastlabki yillarda kechki oliy bilimgohta ancha qiyinchiliklar mavjud edi. Avvalo u o'zining o'quv binosiga ega emasdi. Mashg'ulotlar xotin-qizlar pedagogika bilim yurti binosida olib borilar, darsliklar va o'quv qurollari yetishmas, kabinetlar yo'q edi.

Lekin, respublika hukumatining katta yordami tufayli oliy bilimgoht sekin-asta rivojlanib bordi va 1933-yilda uning 3 ta bo'limidagi 5 ta guruhda 146 talaba ta'lim oldi. 1934-yilda 153 talaba ta'lim olishi bilan birga bir yillik tayyorlov kursida ham 147 kishi o'qidi. O'qituvchilar tarkibi esa 7 kishidan iborat edi.

Oliy bilimgohtning birinchi direktori X. Valishin bo'lib, u 1936-yilgacha ishlagan. 1931–1934-yillarda oliy bilimgohta Ro'ziyev, Mayatskiy, Liberman, Baranov, Rahmonov, Xnigin, Vasilyeva, Korobkova, Antonov, Rumyantsev, Aminov, Samadovlar dars bergan bo'lib, ulardan faqat 2 kishi shtatli, qolganlari esa o'rindoshlik asosida ishlaganlar. Bir qismi esa Farg'ona oliy bilimgohtidan kelib ishlab turganlar.

Kechki oliy bilimgohta o'quv mashg'ulotlari haftada uch marta va har dam olish kuni olib borilar, hammasi bo'lib haftada 16 soat yoki har oyda 80 soat dars o'tilar edi. O'quv rejalari esa 4 yilga mo'ljallangandi. Oliy bilimgohtning birinchi chiqarishi 1934–1935 o'quv yilida bo'ldi va shu yili 42 kishi birinchi bo'lib Qo'qon oliy pedagogika bilimgohti diplomini oldilar. Shu jumladan: Fizika-matematika bo'limini 12 kishi (matematika mutaxassisligi bo'yicha); Tabiyot bo'limini 16 kishi;

O'zbek tili va adabiyoti va tarix bo'limini 14 kishi bitirdi. Bular orasida yerli millat vakillari 7 kishi bo'lib, undan faqat 1 kishi xotin-qizlardan edi[7]. Hujjatlar shuni ko'rsatadiki, oliy bilimgohtni tamomlaganlar shahar va nohiya maktablari va boshqa o'quv yurtlarida muvaffaqiyat bilan ishlaganlar.

Qo'qon pedagogika oliy ilmgohi sekin-asta o'z faoliyatini kuchaytirdi. 1935-yilda fizika-matematika bo'limi alohida fizika-matematika hamda O'zbek tili, adabiyoti va tarix bo'limi o'zbek tili va adabiyoti, tarix mutaxassisligi sifatida ajraldi.

Maktabgacha tarbiya bo'limi ham ish boshladi. 1936-yil 1-dekabrda oliy bilimgohtning: Filologiya bo'limida 21 nafa, Fizika-matematika bo'limida 56 nafar, Tabiyot bo'limida 30 nafar, Geografiya bo'limida 32 nafar, Maktabgacha tarbiya bo'limida 17 nafar talaba tahsil olgan[8].

Shuni ta'kidlash lozimki, mazkur maktabgacha tarbiya bo'limi jumhuriyatda ikkinchi va Farg'ona vodiysida birinchi bo'lim edi. Oliy bilimgohta o'quv mashg'ulotlari o'zbek va rus tillarida olib borilgan. Talabalar turli millat vakillaridan iborat bo'lib, yerli millatlar bilan birga rus, ukrain, belorus, tatar, yahudiy va boshqa millat vakillari ham ta'lim olar edilar.

Oliy bilimgoht faoliyatida ko'pgina qiyinchiliklar mavjud edi: mutaxassis kadrlar yetishmas, ayniqsa, o'zbek tilida dars beruvchi pedagoglar juda kam edi. Shuning uchun qator fanlar (matematika, fizika) o'zbek guruhlarida tarjimonlar yordamida o'qitilar edi. Oliy bilimgoht o'zining professor va dotsentlariga ega emasdi (dastlabki yillarda oliy

=====

bilimgohda dars bergan professor A. A. Sokolov va dotsent M. O. Romyantsev kabilar Farg'ona pedagogika oliy bilimghida ishlar edilar).

O'qituvchilarning yetishmasligi sababli ayrim fanlar bo'yicha o'quv rejalari bajarilmay qolar edi. 1936-yilgacha oliy bilimghoh direktori bo'lib ishlagan X. Valishin ishdan ketgandan keyin, 1937-yil davomida bu o'rin bo'sh qolgan va bu vazifani vaqtincha Qo'qon shahar partiya qo'mitasi apparatida ishlab turgan F. S. Mayatskiy bajargan. 1937-yilning oktyabridan oliy bilimghoh direktorligiga bir vaqtning o'zida maktab direktori bo'lib ishlab turgan M. I. Golseva tayinlanadi.

1938 yilgacha kechki pedagogika ilmiy xodim professor-o'qituvchilari tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari asosan nomzodlik imtihonlarini topshirishga tayyorgarlik ko'rish, ayrim mavzular yuzasidan ilmiy-metodik maqolalar yozishdan iborat bo'lgan.

1939 yilda o'quv yurti kunduzgi davlat o'qituvchilar institutiga aylantirilib, unda kafedralar tashkil etilgandan so'ng o'qituvchilar qat'iy dissertatsiya mavzulari bo'yicha ilmiy ish bilan shug'ullana boshladilar[9].

Xulosa

1931–1938-yillar Qo'qon davlat universiteti tarixida shakllanish va tashkiliy jihatdan mustahkamlanish davri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur davrda ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi yaratilib, pedagogik kadrlar tarkibi shakllantirildi hamda o'quv jarayoni izchil yo'lga qo'yildi. Bu jarayon mamlakatda amalga oshirilayotgan ta'lim siyosati va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bilan chambarchas bog'liq holda kechdi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 1931–1938-yillar davomida oliy ta'lim tizimida yuz bergan o'zgarishlar mazkur ta'lim muassasasining faoliyatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatgan. O'quv rejalari takomillashtirilib, mutaxassislar tayyorlash jarayoni tizimlashtirildi. Shu bilan birga, bu davr universitet tarixida murakkab siyosiy-ijtimoiy sharoitlar bilan ham xarakterlanadi, bu esa ta'lim jarayonining mazmuni va yo'nalishlariga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Xulosa qilib aytganda, 1931–1938-yillar mazkur oliy ta'lim muassasasining keyingi taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor vazifasini bajardi. Aynan shu bosqichda shakllangan tashkiliy tajriba va pedagogik an'analar keyingi yillardagi rivojlanish jarayonlari uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zSSJ MDA. F – 94, akt – 5, D. 673, 21 - varoq
2. X. Mavlonqulov, G'. Toshpo'latov, L. Zohidov. Yuksalish odimlari (Qo'qon Davlat pedagogika instituti 60 yilligi tarixidan). – Qo 'qon, 1992, 3 – bet

- =====
3. V. Mahmudov, M. Jamoliddinov, M. Maqsudov, D. Mirzajonova, M. Axmedov. Muqimiy nomidagi Qo‘qon Davlat pedagogika institutining innovatsion rivojlanish istiqbol dasturi. – Qo‘qon, 2007, 3 – bet
 4. O‘zSSJ MDA. F – 94, akt – 5, D. 673, 56 – varoq
 5. X. Mavlonqulov, G‘. Toshpo‘latov, L. Zohidov. Yuksalish odimlari (Qo‘qon Davlat pedagogika instituti 60 yilligi tarixidan). – Qo ‘qon, 1992, 11 – bet
 6. O‘zSSJ MDA. F – 94, akt – 5, D. 673, 24 - varoq
 7. O‘zSSJ MDA. F – 94, akt – 5, D. 3869, 114- varoq
 8. Yuqoridagi fond, akt – 5, D. 6, 127 – varoq
 9. X. Mavlonqulov, G‘. Toshpo‘latov, L. Zohidov. Yuksalish odimlari (Qo‘qon Davlat pedagogika instituti 60 yilligi tarixidan). – Qo ‘qon, 1992, 14 – bet